

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI NOAN'ANAVIY O'YINLAR VOSITASIDA TARBIYALASHNINIG MUXIM JIXATLARI

Kenjayeva Kamola Xasanboyevna
SHaxrixon tumani 16-DMMT uslubchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni noan'anaviy o'yinlar vositasida tarbiyalashning muxim jixatlari yoritildi.

Kalit so'zlar: Tarbiyachi, kompetentlik, kompetensiya, individ, ijtimoiy zamonaviy tarbiyachi.

KIRISH

Yosh avlodni shaxs sifatida shakllanishida oiladan tashqari, uzluksiz ta'limning ham o'z o'rnini hamda vazifalari bor. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z maxoratini doimo faollashtirib borishva hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak. Pedagog – tarbiyachi shaxsiga qo'yilgan talablar: Bolalar bog'chasida bolalar bilan olib boriladigan ta'lim va tarbiya ishning butun mazmunini tarbiya vazifalari bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishning maqsad va vazifalari:

- 1) bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish;
- 2) ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilishi va ehtiyojlarini qondirish;
- 3) milliy va umuminsoniy qadiryatlarga, mustaqillik g'oyalari sodiq holda voyaga etib borishini ta'minlash;
- 4) ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, bigalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, goyaviy e'tikodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turiladi. Ayniqsa majburiy ta'lim guruhi tarbiyachisi o'ziga yuklangan vazifani

bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi kerak. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi kerak. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim. Majburiy guruh tarbiyachisi tashkilotdagi tarbiyachi xodimlardek, ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi kerak. Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoqlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo'lsa ovuntara olishi kerak. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak. Pedagog – tarbiyachi shaxsiga quyiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikkasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasi chuqur bilishi bolalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu pedagog – tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muxim fazilatlaridan talablaridan biri bolalarni sevish ularning xayoti bilan qiziqish har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar kilaoladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo'la oladi. Bolaga befarq uning kelajagi va qiziqmaydigan tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog – tarbiyachi bo'la olmaydi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va engil qiladi. O'qituvchi tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga xurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagoga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarga chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi. Maktabgacha talim tashkiloti tayyorlov guruh tarbiyachilari mashg'uatlarida noan'anaviy mashg'ulotning 'rni. Nutq o'stirish umumiy guruhdagi o'quv faoliyatida 5-6 yoshli bolalar uchun "Bir nom bilan ayt" didaktik o'yinini qo'llash mumkin.

Maqsad: bolaning tabiat va jixozlar haqidagi bilimni mustahkamlash, so'z boyligini kengaytirish, nutqini rivojlantirish, tez fikrlash va topqilikka o'rgatish.

Jihozlar: turli mevalar, sabzavotlar, hayvonlar, mebellar, transportlar va daraxtlar tasvirlangan rangli rasmlar.

O'yin qoidasi: bola tarbiyachi ko'rsatgan rasmlarni bitta umumiy nom bilan nomlashi kerak.

O'yinning borishi: tarbiyachi umumiy bitta nom bilan nomlanadigan rasmlarni ketma-ketlikda ko'rsatadi. Masalan, karam, piyoz, qalampir, kartoshka, sabzi rasmlarini ko'rsatganda bolalar bularni bir nom bilan sabzavotlar deb atalishini aytadilar. Ayiq, bo'ri, tulki, olmaxon, kiyik, yo'lbars rasmini ko'rsatganda bular yovvoyi hayvonlar deb atalishini aytadilar. Bu o'yin orqali bolalar rasmda ko'rsatilgan

jonli va jonsiz predmetlarning xususiyatlari, rangi, qayerda o`shishi yoki yashashi haqida ham ma`lumotga ega bo`ladilar. So`zlarni qayra takrorlash orqali nutqi rivojlanadi, so`z boyligi ortadi. Tarbiyachi bolalarni gapirtish orqali ularning nutqidagi kamchiliklarini ham aniqlash imkoniga ega bo`ladi va noto`g`ri talaffuz qilgan so`zlarini to`g`ri talaffuz qildirishga harakat qiladi.

“Juftini top” didaktik o`yini.

Maqsad: bolalarni tabiatdagi jonzoqlar bilan tanishtirish, ular haqida tasavvurga ega bo`lishga o`rgatish, ularda topqirlik, tez fikrlash, bilimdonlik qobiliyatlarini shakllantirish.

Jihozlar: turli hasharotlar, gullar, mevalar, daraxtlar tasvirlangan rangli didaktik tarqatmalar to`plami.

O`yin qoidasi: bola tarbiyachi tomonidan aralashtirilgan kartochkalardagi bir xil rasmlarni tanlaydi.

O`yinning borishi: Tarbiyachi rasmlar tasvirlangan varaqni kartochkalarga kesib oladi. 10 juft kartochkadan iborat to`plam hosil bo`lgach, kartochkalar aralashtiriladi va yuza qismini pastga qilib terib chiqiladi. (bo`sh tomoni tepaga) O`yinchilar navbat bilan 2 tadan kartochkalarni ochadi. Agarda ochilgan kartochkalar bir xil bo`lsa, unda o`yinchi kartochkalarni o`zida olib qoladi, aks holda kartochkalarni ochishda davom etadi. Agar kartochkalar mos bo`lmasa, oldingi holatida, ya`ni teskari qilib qo`yadi va kartochkalarni ochish navbati keyingi o`yinchiga o`tadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tushunchalarni rivojlantirishga hissa qo`shadigan matematik toifalarga (shakli, miqdori, hajmi, vaqti, joylashuvi) o`z-o`zidan qiziqish bildiradilar. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida pedagoglar bolalarning bu boradagi bilimlarini, ya`ni ilk matematik tasavvurlarini kengaytirib boradilar.

Umumiy guruhdagi matematika mashg`ulotlarida ham “Qiziqarli matematika”dan didaktik o`yinlarni qo`llash bolalarni elementar matematik tasavvurlarini shakllanishiga, ma`lumotlarni qabul qilish, fikrlash, diqqat, xotirani rivojlantirish, dunyoqarashini kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zaxarash, T. O`qituvchilar malakasini oshirish mazmunining zamonaviy yangilanishi / T. Zaxarash // Maktabgacha ta`lim - 2011.-№ 12. S.74
2. Svatalova, T. O`qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini baholash bo'yicha qo`llanma / T. Svatalova // Maktabgacha ta`lim - 2011.-№1. S.95.
3. Xoxlova, O.A. O`qituvchilarning kasbiy vakolatlarini shakllantirish / O.A. Xoxlova // Katta o`qituvchining qo`llanmasi - 2010. - № 3.- B.4.